

USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI

Haqqulov Mehriddin Yunusovich

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası o‘qituvchisi

mexriddinhaqqulov@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.14709170>

Annotatsiya. Ko‘p yillar davomida Usmoniylarning paydo bo‘lishi va ularning XIV asr oxirigacha bo‘lgan tarixi kam o‘rganilgan. Tarix yaqin davrlargacha faqatgina dushmanlik ruhida bo‘lgan grek manbalaridan yoki keyinchalik Usmoniy sultonlarni maqtab yozadigan turk tarixchilari asarlaridan o‘rganilgan. Usmoniylar va Yevropa arxivlaridan olingan yangi xujjatlar va ularning tanqidiy analizi Usmoniylarning kelib chiqishini tushunishga yordam beradi. Biz bilamizki, Usmoniylar kelib chiqqan qabila o‘g‘uzlar ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalar bo‘lib, yozda tog‘larga ketar edi. Shaharlardan uzoqlarda chodirlarda yashovchi qabilalar O‘rta Osiyodan kelgan Saljuqiylardan yoki XIII asr birinchi yarmida mo‘g‘ullar tomonidan g‘arbga keltirilgan turkiy qabilalardan kelib chiqqan. Anatoliyadagi qabilalarning ilk boshliqlari haqidagi ma‘lumotlar juda kam. Ular haqida faqatgina afsona va tarixiy uydurmalar qolgan. Ishonchli dalillar shuni ko‘rsatadiki, Usmoniylar sulolasi nomiga Erto‘g‘rul asos solgan. Bu haqda Erto‘g‘rulning o‘g‘li Usmon nomidan zarb etilgan tangalardagi yozuvlar guvohlik beradi. Afsonaga e‘tibor beramiz.

Kalit so‘zlar: tarix, qabila, yilnomalar, turk va vizantiya manbalari, musulmonlar va xristianlar, qonunshunoslar, mudofaa inshootlari.

HISTORY OF THE OTTOMAN EMPIRE

Abstract. For many years, the emergence of the Ottomans and their history up to the end of the 14th century has been little studied. Until recently, history was studied only from Greek sources, which were hostile, or from the works of Turkish historians who later wrote in praise of the Ottoman sultans. New documents from Ottoman and European archives and their critical analysis help to understand the origin of the Ottomans. We know that the Oghuz tribe, from which the Ottomans originated, were nomadic and semi-nomadic tribes who went to the mountains in the summer. The tribes living in tents far from the cities descended from the Seljuks who came from Central Asia or from the Turkic tribes brought west by the Mongols in the first half of the 13th century. Very little is known about the early chieftains of the tribes in Anatolia. Only legends and historical fictions remain about them. Reliable evidence suggests that the Ottoman dynasty was founded by Ertugrul. This is evidenced by the inscriptions on coins minted in the name of Ertugrul's son Osman. Let's pay attention to the legend.

Keywords: history, tribe, chronicles, Turkish and Byzantine sources, Muslims and Christians, jurists, defensive structures.

ИСТОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ

Аннотация. На протяжении многих лет возникновение османов и их история до конца XIV века были малоизучены. До недавнего времени историю изучали только по враждебным греческим источникам или по трудам турецких историков, которые позднее писали хвалебные песни османским султанам. Новые документы из османских и европейских архивов и их критический анализ помогают понять происхождение османов. Мы знаем, что огузы, племя, от которого произошли османы, были кочевыми и полукочевыми племенами, которые летом уходили в горы. Племена, жившие в палатках вдали от городов, произошли от сельджуков из Средней Азии или от тюркских племен, привезенных на Запад монголами в первой половине XIII века. Информации о ранних племенных вождях Анатолии очень мало. О них остались лишь легенды и исторические вымыслы. Достоверные данные свидетельствуют о том, что Османскую династию основал Эртугрул. Об этом свидетельствуют надписи на монетах, отчеканенных от имени сына Эртугрула Османа. Мы обращаем внимание на легенду.

Ключевые слова: история, племя, летописи, турецкие и византийские источники, мусульмане и христиане, юристы, оборонительные сооружения.

Usmoniylar yilnomalarida bu tarix siyosiy maqsadlarda o'ylab topilgani aytiladi. XIV asr boshlaridagi turk va vizantiya manbalarini qiyosiy o'rganish orqali quyidagi dalillarni aniqlash mumkin. XIII asrda turk qabilalari mo'g'ullar zulmidan qutilish uchun G'arbga qochishadi.

Anatoliya yassi tog'liklarining tub aholisi ularni siqib chiqaradi, ular Ko'nyadagi saljuqiylar sultonligi g'arbiy chegarasida to'planishadi.

Yangi yaylovlarni qidirib turk qabilalari chegara hududlarida o'rnashib olishadi. Yaqinda joylashagan Vizantiya markazlari ularga mahsulotlarini sotish va zahiralarni to'ldirishga yordam beradi. Sangarios (hozirgi Sakarya) daryosi qal'alar bilan mustahkamlangan hudud bo'lib Vizantiya va turk bekligi o'rtasidagi chegara hisoblanardi. Boshlanishida turklar va Vizantiyaliklar jiddiy to'qnashuvlarsiz yashaganlar. Chegaralar o'tib bo'larli, musulmonlar va xristianlar bozorlarda bir-birlari bilan aloqalarni mustaxkamlab yashar edilar.

Aloqalarning rivojlanishiga Vizantiyada yashovchi xristianlikni qabul qilagan turklar o'z hissalarini qo'shdilar. Lekin o'zaro ishonch rishtalari va tinch hayot bir kun nihoyasiga yetishi kerak edi. To'qnashuvlardan to'qnashuvlarga turklarning o'z kuchiga ishonchi ortib bordi. Usmon boylik orttirishga o'ch bo'lgan, sarguzasht izlovchi va urushlarga tayyor bo'lgan jangchilarni yig'di.

Qonunshunoslar va “ziyolilar” Anatoliyani tashlab unga yangi davlat qo‘rishda yordam berish uchun kelishardi. Usmon bu insonlar jamoasini kerakli oqim bo‘yicha harakatlantira oladi va ularni o‘z bayrog‘i ostida birlashtiradi. 1302 yil 27 iyulda Usmon Nikomediya (Izmit) vizantiyaliklar bilan bo‘lgan jangda g‘alaba qozonadi. Shundan so‘ng Usmon Anatoliyaning shimoliy-g‘arbida beklikning boshiga keldi. U vizantiyaliklarga qarshi tura oldi va kuchli bo‘lgan Germiyon, Karaman, Jondor, Saruxan, Teke va Montesha kabi qo‘shni turkman bekliklari bilan kurash olib bordi. XIII asr oxirigacha Usmon Vizantiyaning Vifiniya viloyatining sharqiy qismida nazorat o‘rnatdi. 1317 yil Usmon (1326 yil vafot etgan) qo‘shin boshqaruvni o‘z o‘g‘li O‘rxonga qoldiradi va Sakarya daryosi vodiysini kechib o‘tib Brusa (Bursa) ostonalarini himoya qiladigan mudofaa inshootlarini egallaydi. Oqibatda 1326 yilda Bursa shahri taslim bo‘ladi va shu paytda sharqdagi Bolu shahri ham taslim bo‘ladi. 1326 yildan 1365 yilgacha Brusa (Bursa) Usmoniy davlatining poytaxti bo‘ladi. O‘rxonning xizmatlari shundan iboratki u haqiqatdan Usmoniy davlatiga asos soldi. U ichki boshqaruv o‘rnatdi: 1327 yildan Usmoniy tangasi bosila boshlandi, tanganing bosilishi mustaqillikni anglatar edi, haqiqiy armiyaga asos solinishi va uning asosiy qismini yanicharlar-professional askarlardan tashkil topgan sara qism tashkil qilar edi, undan tashqari kavaleriya qayta tashkil etildi. Bunday Usmon armiyasida “kofirlar dunyosini” egallash kabi diniy mafkuraviy g‘oyalarni ko‘rmaslik mumkin emas edi. Bursadagi Shahodat masjididagi yozuvga asosan O‘rxon “Sulton-g‘olib, iymon uchun kurashchi” unvonini olgan. Lekin u ortodoksal islomni emas balki ko‘plab turkiy qabilaviy urf-odatlarini o‘zida ifoda etuvchi Alaviylik va o‘n ikki imomni e‘zozlovchi oqimga xayrihoh edi. O‘rxon va uning valiaxdi Murod I (1362-1389) Vizantiyaga qarshi doimiy va yengilmas urushlar olib bordi: Bursadan so‘ng ular Nikeya/Iznik (1331) va Nikomediya/Izmit (1337) egallab olishdi. 1354 yil Usmoniy Dardanelni kechib o‘tib, bir necha yil davomida Gallipolini (1354), Adrianopol/Edernani (1362-1371) egallashdi va bu yerlar asrlar davomida ularning Yevropadagi tayanchi bo‘ldi. Serblar va bolgarlar ustidan qozonilgan ko‘plab g‘alabalar, jumladan, Marisa (1371) yaqinidagi va Kosovo maydonidagi (1389) g‘alabalar natijasida Bolqonning katta qismini egallashdi. Keyingi muvaffaqiyatli yurishlardan so‘ng Makedoniya, Bolgariya va Serbiya ham qo‘lga kiritildi. Yevropadagi har bir urushda bosqinchilik birinchi o‘rinda turar edi. Ko‘p xolatlarda bu tinchlik bilan amalga oshiriladi va ularning davlati asosini mustahkamlar edi. 1389 yil to‘rtinchi usmoniy hukmdor, Yildirim (“Yashin”, “Chaqmoq”) nomini olgan Bayazid I Yevropa va Osiyodagi juda katta hududni meros qilib oldi. Juda katta maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan sulton o‘z davlati hududlarini kengaytirishni xohlar edi. Boshlanishiga u o‘z e‘tiborini sharqqa qaratdi va birin ketin barcha turk yerlarini (Saruxan, Oydin, Monteshe, Hamid, Karaman, Germiyon va Sivas) egallab, butun Anatoliyani o‘ziga bo‘ysundirdi.

1451 yil Mexmed II o'z otasi Murod II dan taxtni qabul qilib olganda imperiya oldingiday ikkiga bo'lingan edi. Qadimiy musulmonlar yerlari – Anatoliya Yaqin Sharq Islom sivilizatsiyasining bir qismiga aylangan edi. Yaqindagina qo'lga kiritilgan Rumeliya avvalgi taassurotlari va chegara hududi aholisi urf-odatlarini, shuningdek eklektik din va qalandarlik afsonalari bilan yashar edi. Ularning orasida Bursadagi eski poytaxt va Edernadagi yangi poytaxt ko'priki vazifasini o'tashi kerak edi. 1453 yil 29 mayda sultonning taxtga kelishidan ikki yil o'tib, qamalning boshlanganiga 7 hafta bo'lganida, yanicharlar Konstantinopolning qal'a devorlarini shturm qilishga kirishdi. Ko'plab shaharliklar jang maydonida xalok bo'lishdi. Muqaddas Sofiya ibodatxonasi gumbaziga Usmoniylar bayrog'i o'rnatildi. Xristian Yevropasida bu voqea katta shov-shuvga sabab bo'ldi.

Usmoniylar imperiyasining gullab-yashnashi Mexmed II ning hukmronligidan (1451) Sulaymon Qonuniy (1566) hukmronligining oxirgi yillariga to'g'ri keladi. 100 yil davomida Usmoniylar imperiyasi butun Bolqon Yevropasi, Markaziy Yevropaning bir qismi, Arab Yaqin Sharqi va Shimoliy Afrika (Marokashdan tashqari) hududlariga tarqaldi.

Bu davrning buyuk muvafaqqiyati 1453 yil 29 mayda Mexmed II (Fotix) tomonidan Konstantinopolni olinishidir. Bu shaharga egalik qilish sultonga Yevropa va Osiyo o'rtasidagi yetishib bo'lmas bog'i-chni va Vizantiya imperiyasining vorisi maqomini berdi. Shuningdek, diniy jihatdan islomning xristianlar ustidan g'alabasini anglatar edi. Sulton musulmon dunyosida katta mavqega ega bo'ldi.

Sulton O'rxon davrida ilk usmoniy tangalari zarb qilindi. Bunga juda katta ahamiyat berilar edi. Chunki tangani mustaqil zarb etish, hukmdorning nomini juma namozida va bayram kunlarida (xutbada) tilga olinishi musulmon davlatlarida davlat hukmdorlarining mustaqil ekanligiga ishora edi. Usmoniylar davlatida qonun chiqargan birinchi sulton Maxmud I (1359-1389) hisoblanadi. Uning davrida birinchi qonunlar chiqa boshlaydi. 1368 yildagi qonun rasmiylashtirildi, ya'ni bu qonun bo'yicha bosib olingan yerlar davlat mulki hisoblanadigan bo'ldi.

XVI asr o'rtalarida Usmoniylar imperiyasi 21 ta viloyatga bo'lingan edi. Ularning har biriga viloyatdagi harbiy va ma'muriy hokimiyatni to'liq qo'lida tutib turuvchi beklarbegi boshchilik qilardi. Har bir beklarbegi o'z saroyi, devonxona va devoniga ega edi. Viloyatlar sanjaklarga bo'lingan bo'lib, ularga sanjakbeylar boshchilik qilardi. Sulaymon I hukmronligi davrida 250 ta sanjak bor edi. Usmoniylar imperiyasining quruqlikdagi armiyasi ham juda kuchli edi. Bu armiya «Saroy qullari» deb ataluvchi markaziy qo'shin va viloyatlardagi ko'ngillilar qismlaridan iborat edi. Markaziy qo'shinda butunlay davlat tomonidan ta'minlanadigan yanicharlar korpusiga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, qo'shinda artilleriya qismlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, turk sultonlari uning holati yaxshi bo'lishi uchun ko'proq qayg'urar edilar. Sulaymon armiyasida 300 dan ortiq turli hajmdagi to'plar bor edi. Yanichar-larning piyodalar korpusidan

tashqari sultonning otliq gvardiyasi ham mavjud bo'lib, u yurishlar paytida sulton va buyuk vazirni qo'riqlar, janglarda yanicharlarga yordam berar edi.

Yaqin vaqtlargacha Usmoniylar imperiyasining inqiroz davri XVII-XVIII asrlar deb hisoblangan. Lekin bizning davrimizda tarix-chilarimizning fikri har-xil. U asrlarda sodir bo'lgan voqealarda ular inqiroz alomatlarini ko'rishadi lekin tanazzulni emas. Chunki tanazzul tushunchasi davomiylikni, qaytarilmaslikni va ko'p qirralikni bildiradi. Usmoniylar imperiyasi hayoti davomida juda ko'plab inqirozlarni Fransiyadagi diniy urushlar yoki markaziy Yevropadagi o'ttiz yillik urushlarni boshidan kechirdi. Lekin bu nuqtai nazardan tanazzul xaqida gapirish mumkin emas. Tanazzul haqida gapirilganda ma'lum vaqt davlatning barcha hayot sohalari, siyosiy va harbiygina emas, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalari ham achinarli holatga tushib qoladi. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlariga kelib imperiyaning turg'unlik davri (tavaqquf davri) tugab inqiroz davri boshlandi. Bu davrni turk tarixchilari «Rijot davri» deb atashadi. XVIII asrdan boshlab Usmoniylar imperiyasi birin-ketin ilgari egallab olgan hududlarini yo'qota boshladi. Buning sababi, birinchidan, Yevropa mamlakatlaridagi iqtisodiy rivojlanish natijasida harbiy va siyosiy salohiyatning o'sishi bo'lsa, ikkinchidan, Usmoniylar davlatida yuz berayotgan chuqur iqtisodiy inqiroz edi.

1918-yilning 30-oktabrida tuzilgan Mudros bitimi Antanta va Turkiya davlatlari o'rtasidagi Birinchi jahon urushidagi harbiy harakatlarga chek qo'ydi. O'sha davrda inglizlar Yaqin Sharqda kommunikatsiya va tabiiy (neft) resurslarni nazorat ostiga olgan edi. Britaniya hukumatining orzulari ro'yobga chiqdi, ya'ni Yaqin Sharqda to'liq ingliz tartibi o'rnatildi. Bitimga, asosan, Bosfor, Dardanel, Istanbul, Antanta qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilindi. Turkiya hukumati rahbarlari Anvar Poshsho, Tal'at Poshsho, Jamol Poshsholar o'z yaqinlarini olib nemislarning kemasida Germaniyaga qochishdi.

Yangi Majlis Anqarada 1920 yilning 23 aprelida juma kuni chaqirildi. Kamol boshchiligidagi yangi saylangan majlis deputatlari oldin fransuz garnizoni boshqarmasi joylashgan Ulus maydonidagi yangi bino oldida yig'ilib, u yerdan tarixiy Xo'ja Bayram vali masjidiga bordilar va nomoz o'qidilar. Qurbonlik keltirilgandan so'ng deputatlar o'zlarining Turkiya Buyuk Millat Majlisining birinchi yig'ilishiga yo'l oldilar. Uning tarkibida endi saylangan deputatlar (312) bilan bir qatorda Istanbuldan Anqaraga qochgan yeski parlament vakillari (78) ham bor edi. TBMMning binosi ikki qavatli bo'lib, tunda kerosinli chiroqlar bilan yoritilgan, qishda esa "burjuyka"ga o'xshash plitalar bilan isitilgan. Deputatlar orasida ofiserlar, savdogarlar, yer egalari, diniy arboblari, amaldorlar, huquqshunoslar va jurnalistlar ham bor edi. Shu tariqa birinchi inqilobiy majlisning ijtimoiy tarkibi milliy ozodlik harakatining tarkibi xususiyatini ochiq aks ettirar edi. Birinchi yig'ilishni oqsoqol deputat Sharif bey ochib berdi, ikkinchi bo'lib Mustafo Kamol so'zga chiqdi. TBMM ishchi yig'ilishi o'z ishini 24 aprelda boshladi. Shu kuni TBMM

deklaratsiyasi o'qildi va deputatlar "Milliy Qasam"ga sodiqlik ontini ichdilar. TBMM prezidiumi saylandi, uning raisi etib Mustaf o Kamol tayinlandi. U bu lavozimda 1923 yilning 29 oktyabrigacha qolib, Turkiya Respublika deb e'lon qilingan kun Mustaf o Kamol prezident etib saylandi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ertug'ul G'oziy ekkan chinor o'sib barcha turk ovullariga, musulmon ahliga soya bo'lib mo'g'ullar va vizantiyaliklar zulmidan najot soyasi bo'ldi. Usmonbey hamda uning vorislari hukmronligi davrida butun aholi tinch totuvlikda, adolat qilichi ostida himoyada yashadilar. Islom ahlining homiysi, xalifasi bo'lgan Usmoniylar Yevropa davlatlarining o'yinlari qurboni bo'ldi. Birinchi jahon urushidan so'ng truk millati o'z vatanlarini o'zlari himoya qilishga kirishib, xalq boshqaruvi asosida Turkiya Respublikasini qurishdi.

REFERENCES

1. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
2. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
3. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
4. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
5. Yunus ogli, H. M. (2023). QADIMGI MESOPOTAMIYA SHAHAR-DAVLATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR.
6. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
7. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
8. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIIY, MA'NAVIIY-MADANIIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.

9. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
10. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
11. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
12. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
13. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
14. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
15. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
16. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
17. Obid o'g'li, B. O., & Zaynievich, O. M. (2024). BUXORO VA JUNG'OR XONLIKLARI O'RTASIDA SIYOSIY MUNOSABATLAR TARIXI.
18. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
19. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
20. Sadullayev, U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(4), 376–385.
21. Sadullaev , U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(5), 344–352.

22. Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(6), 238–241.
23. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
24. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
25. Рахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 366-375.
26. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(8), 160-172.
27. Rahmonova, S. S. Q. (2024). O 'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR DINAMIKASI VA ASOSIY YO'NALISHLARI. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 95-104.
28. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS ARE THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14503228>
29. Nozimov, J. T. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 575-578.
30. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
31. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In *Психология образования будущего: От традиций к инновациям* (pp. 112-114).
32. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(10), 49-51.
33. PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN FOR FORMATION OF DEVELOPMENT FOR PREPARATION FOR UNIVERSITY. (2024). *Multidisciplinary*

578. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1502>
34. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
35. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
36. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
37. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
38. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
39. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
40. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
41. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA–QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
42. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
43. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
44. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
45. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.

46. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
47. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
48. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
49. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
50. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
51. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
52. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
53. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
54. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
55. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
56. Gadayeva, M. (2024). MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 652-658.
57. Muxamedovna, G. M. (2024). Millatimiz Faxri-Buxoro Ma'rifatparvari. *Miasto Przyszłości*, 52, 557-562.
58. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
59. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
60. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).